O’zbekiston Fanlar akademiyasining 2020-yildagi asosiy yutuqlari

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mamlakatning fan, texnika, madaniyat va ma’rifat sohasida fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiruvchi yetakchi davlat ilmiy muassasasi hisoblanadi.

1. Sohada islohot va transformatsiya natijalari bo’yicha:

Ilm-fan sohalarini rivojlantirishga qaratilgan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining va Hukumatning bir qancha farmon va qarorlari qabul qilindi.

Matematika instituti uchun zamonaviy jihozlangan yangi bino qurildi hamda Institutning Qoraqalpog’iston, Buxoro, Namangan, Samarqand, Xorazm hududiy bo’linmalari tashkil etildi. Matematika fani va ta’limini rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash jamg’armasi tashkil etilib, 100 mln. so’m miqdorda mablag’ ajratildi.

Davlat va huquq instituti o’z faoliyatini boshladi.

O’simlik moddalari kimyosi institutida diagnostikumlarni ishlab chiqarish korxonasi hamda “Tibbiy kimyo va nozik organik sintez” laboratoriyasi, Mikrobiologiya institutida “Fitovirusologiya” laboratoriyasi, O’zbek tili, adabiyoti va folklori institutida “Sotsiolingvistika” bo’limi tashkil etildi.

Immunologiya va inson genomikasi instituti huzurida “Biotibbiyot texnologiyalarini muvofiqlashtirish markazi” tashkil etildi.

O’zbekiston tarixi davlat muzeyining filiali sifatida Toshkent muzeyi tashkil etildi.

2. Ilm-fan sohasining asosiy ko’rsatkichlari barqarorligini ta’minlash borasida:

90 ta ixtiroga patent va 51 ta dasturiy mahsulotlar guvohnomalari olindi. 1951 ta ilmiy ish, 155 ta monografiya va albom-kataloglar, 9 darslik va o’quv qo’llanma nashr etildi.

Nobyudjet tushumlar 45,4 mlrd. so’m, eksport hajmi esa 5 990,0 ming doll. miqdorida bajarildi.

3. Kadrlar tayyorlash bo’yicha:

129 ta doktorlik, (ulardan 78- PhD, 51- DSc) dissertatsiyalari himoya qilindi. Matematika fanidan talabalar o’rtasida o’tkazilgan xalqaro onlayn olimpiadada talabalarimiz 2 ta oltin, 5 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo’lga kiritdi.

4. Fanlar akademiyasi tizimida olib borilayotgan fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar natijalari iqtisodiyotimizning rivojiga hissa qo’shib kelmoqda. Jumladan:

Biologik namunalardan virus RNKsini ajratib olish to’plami va qon kasalliklarni aniqlash PZR diagnostikumi yaratildi.

Birinchi marotaba O’rta Osiyo uzum seleksiyasining 203 navlarining birlamchi genetik pasportlari tuzildi.

Suv va gidroenergetika inshootlarining seysmik holatini baholash bo’yicha ekspress uslubiyoti ishlab chiqildi.

Sharqiy O’zbekiston va O’zbekiston markaziy qismining faol yer yoriqlari morfologiyalariga va maydon uzra joylashuviga yangilangan xaritalari tuzildi va hududlarning seysmotektonik modellari ishlab chiqildi.

Alisher Navoiyning 20 jildlik mukammal asarlari to’plamining 3 jildi tayyorlandi. Yangilangan “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug’ati”ning 1-jildi nashr etildi.

“Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g’alabaga O’zbekiston xalqining qo’shgan munosib hissasi”ga bag’ishlangan kitob-albom o’zbek, rus va ingliz tillarida, 2 jildli “O’zbek xalq sehrli ertaklari katalogi” Germaniyada nemis tilida nashr etildi.



5 jildli “O’zbek tilining izohli lug’ati”, “Xalqaro atama elementlarning izohli-illyustrativ lug’ati”, “Davlat tilida ish yuritish” amaliy qo’llanmasi nashr qilindi.

5. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish bo’yicha:

Hisobot va elektron hujjat aylanish tizimi ijro.gov.uz tizimga to’liq joriy etildi, unga 36 ta ilmiy tadqiqot muassasalari va ularning ma’muriy-boshqaruv xodimlari ulandi.

Yuqori samadorli kompyuterlar (mini superkompyuter) o’rnatildi. Matematika instituti va Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi tomonidan COVID-19 bilan kasallanganlarni o’rganish va boshqarish tizimi ishlab chiqildi.

Zilzila sodir bo’lganda seysmik jadallik ma’lumotlarini turli masofalardan internet tarmoqlari orqali yuborish tizimi asosida zilzilalarni tezkor ogohlantirish texnologiyasi ishlab chiqildi.

6. Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo’yicha:

Yetakchi xorijiy ilmiy muassasalar bilan 12 ta xalqaro qo’shma ilmiy loyihalar bajarildi, 56 nafar ilmiy xodimlar xorijiy ilmiy safarlarga yuborildi, 6 ta xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etildi va muassasalar darajasida 5 ta hamkorlik kelishuvlari imzolandi.

O’zbekiston Respublikasi Global biologik xilma-xillik bo’yicha ma’lumotlar portali (GBIF tizimi)ga assotsiatsiyalangan a’zo bo’ldi.

O’zbekiston Xalqaro davlatlaro ilmiy-tadqiqotlar tashkiloti “Yadro tadqiqotlari birlashgan instituti” (OIYaI, Dubna) da a’zoligini tikladi.

7. Ilm-fan yutuqlarini ommalashtirish bo’yicha:

26-27 noyabr kunlari an’anaviy “Noyabr o’qishlari” akademik seminari o’tkazildi.

Akademiyaning veb-saytida 600 ga yaqin ilmiy yangiliklar, e’lonlar, o’tkazilgan tadbirlar haqidagi materiallar, 20 ta fotoalbom, 190 ta videoalbom, shuningdek, - Youtube kanalida 200 ga yaqin video, Telegram kanalida 800 ga yaqin materiallar e’lon qilindi. OAV da 200 dan ortiq intervyular tashkil etildi va efirga uzatildi, gazeta va boshqa axborot agentliklari saytlarida 300 dan ortiq maqolalar e’lon qilindi.

4 ta press-tur, 9 ta ilmiy ishlanmalar taqdimoti, 4 ta ko’rgazma, 5 ta matbuot anjumani, 2 ta brifing, 50 ga yaqin ilmiy seminar va anjumanlar tashkil etildi va 7 ta rasmiy bayonot berildi.



